

**KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR VA JAVOBGARLIK
MASALALARI****Ganiyev Shaxobitdin Xolmatovich***O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar**kafedrasi katta o‘qituvchisi, mayor**tel: +99890-317-10-27.**shax.ganiyev86@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaning tushunchasi, uning turlari va salbiy oqibatlari. Korrupsiya qarshi kurashishning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilik. Korrupsiyaviy jinoyatlar va ularning profilaktikasi hamda javobgarlik masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, huquqbuzarlik, jinoyat, statistika.

CORRUPTION-RELATED OFFENSES AND ISSUES OF LIABILITY

Annotation. This article examines the concept of corruption, its types, and its negative consequences. It analyzes the legal foundations for combating corruption within international and national legislation. Particular attention is paid to corruption-related crimes, their prevention, and issues of liability.

Keywords: corruption, conflict of interests, offense, crime, statistics.

Bugungi kunda mamlakatimizda barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv va ijtimoiy kafolatlar yaratish maqsadida keng ko‘lamda islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ana shunday maqsadli va keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish chog‘ida, dahshatli illatlardan biri bo‘lgan korrupsiya bu boradagi ishlarni amalga oshirishga va samarali natijalarga erishishga o‘zining to‘sqinligini ko‘rsatib kelayotganligi barchamizni tashvishga solib kelmoqda.

Dunyoda globallashuv jarayonlarning tobora rivojlanishi sababli korrupsiyaning zamonaviy va yashirin ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda. Shu bois har qanday ko‘rinishdagi korrupsiya holatlarining sodir etilishi, ularning ko‘payishi va o‘z vaqtida barham berilmasligiga o‘zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz ham qaysidir ma‘noda sabab bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun har bir fuqaro korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuz berishiga guvoh bo‘lganida darhol bunday holat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi lozim.

Bu borada, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart. Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur. Korrupsiya o‘ta og‘ir jinoyat ekani va unga nisbatan murosasiz bo‘lish g‘oyasini farzandlarimizga yoshlik davridan boshlab singdirishimiz, ularga faqat halol mehnat va tadbirkorlik orqali daromad topishni o‘rgatishimiz lozim⁶⁷” deb ta’kidlab o‘tgan.

Shuning uchun ham “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”ning 84-maqsadi: “Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish. Korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish. Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo‘llab-quvvatlash. Korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish. Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish. Normativ-huquqiy hujjatlarning «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash⁶⁸” deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu maqolani yoritishdan dastavval, “korrupsiya” so‘zining terminologik tushunchasiga to‘xtalib o‘tishimiz va uning mazmunini tushunib olishimiz maqsadga muvofiqdir, negaki ijtimoiy va boshqa yuridik adabiyotlarda mazkur termin turlicha talqin qilinadi.

Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, tadbirkorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, norkotrafik, terrorizm va boshqa qilmishlarni ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi⁶⁹.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020 yil. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024 y., 06/24/221/0003-son).

⁶⁹ BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami, 2008 y., 3-4-son)

Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish⁷⁰ tushuniladi.

Xalq tilida soddagina qilib - poraxo‘rlik, keng ma’noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurash choralarini bilishimiz lozim bo‘ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003 yil 21 noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 2004 yildan boshlab “9 dekabr – Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Korrupsiya rivojlangan jamiyatlarda uning quyidagi turlari tez-tez uchraydi:

- Maishiy korrupsiya - asosan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida fuqarolar bilan munosabatlarida manfaatlar to‘qnashadi;
- Ishbilarmonlik korrupsiyasi - bu hokimiyat vakillarining tadbirkorlik sub’ekt (biznesmen)lari bilan munosabatlarida uchraydi;
- Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi - bu demokratik jamiyatlarda siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida ko‘zga tashlanadi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar o‘z vaqtida oldi olinmasa va unga qarshi kurashish borasida barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilmasa quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan:

1. Demokratiya va inson huquqlari institutlarning mustahkamlanishiga jiddiy putur etkazadi;
2. Keng jamoatchilikda hokimiyatga bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi;
3. Jamiyatdagi tinchlik, osoyishtalik, adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarning buzilishiga olib keladi;
4. Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining buzilishi, yashirin iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga zamin yaratadi;
5. Davlat byudjetiga jiddiy zarar etkazadi.

BMT Rivojlanish Dasturining (“UN Development Program”) nazariy tahliliga ko‘ra, korrupsiyani vujudga kelishida quyidagi omillar katta rol o‘ynaydi: vakolat yoki hokimiyatga nisbatan shaxsiy manfaat va o‘zboshimchalikning ustunligi hamda hisobdorsizlik va oshkorasizlik.

Shuningdek, korrupsiyaning vujudga kelishi sabablariga:

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 03 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.06.2024 y., 03/24/931/0402-son).

- normativ-huquqiy bazaning kamchiligi;
- ijro intizomining sustligi;
- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuqori emasligi va boshqalar kiradi.

O‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, qaysi davlatning normativ-huquqiy bazasida kamchiliklar bo‘lsa ana shu davlatda korrupsiyani vujudga kelishi va avjiga chiqib borishi o‘z isbotini topgan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida (keyingi matnlarda - JK) korrupsiyaga oid jinoiy tajovuzlarga qarshi qaratilgan moddalarida va shunga oid belgilagan normalarida hanzuga qadar kamchiliklar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Buning isboti sifatida Respublikamiz miqyosida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni statistikasiga e‘tibor qaratsak bo‘ladi.

Tahlillarga ko‘ra, 2023 yilda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘rilgan jinoyat ishlari yuzasidan ayblov hukmi chiqarilgan korrupsiyaga oid jinoyat ishlari soni 4.128 (to‘rt ming bir yuz yigirma sakkiz) tani tashkil qilgan.

Eng achinarlisi, 2023 yilda sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar ichida 1.146 (bir ming bir yuz qirq olti) nafar muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan ham sodir etilganligi aniqlangan. Ularning 566 (besh yuz olti) nafari muqaddam aynan korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun sudlanganlar⁷¹.

Bu nimadan dalolat beradi, albatta JKga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish kerakligi va shunga oid normalarini takomillashtirish chorasini ko‘rish payti kelganligini bildiradi.

Xususan, korrupsiya jinoyati dahshatli illat hisoblansada, biroq amaldagi JKda bironta korrupsiya so‘zining o‘zi mavjud emas. Bu bilan ushbu qonunchilikda hanzuga qadar korrupsiyaga oid jinoyatlar aniq belgilab berilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning oqibatida fuqarolarimiz orasida JKning faqatgina 210, 211, 212-moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarni korrupsiyaga oid jinoyatlar sifatida hisoblab kelinadi. Ammo, ushbu jinoyatlar JKda boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar bobida joylashgan, aksincha korrupsiyaga oid jinoyatlar bobida emas. Lekin ushbu moddalardan tashqari JKning boshqa boblarida ham korrupsiyaga oid jinoyatlar mavjud. Shu sababli ushbu kodeks “Korrupsiyaga oid jinoyatlar” deb nomlangan yangi bob bilan to‘ldirilsa, natijada ushbu turdagi jinoyatlar aniq belgilab olinar edi. Ana shunda nafaqat huquqni muxofaza qiluvchi organlar, hatto xalqimiz orasida ham korrupsiyaga oid jinoyatlar aynan qaysi jinoyatlar hisoblanishi bo‘yicha tushunchalar paydo bo‘ladi. Buning oqibatida jamiyatimiz orasida

⁷¹
kamaimoqda.

<https://anticorruption.uz/uz/article/zbekistonda-korrupciyaga-oid-jinoyatlar-soni>

korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishiladi. Shuningdek, korrupsiyaga oid jinoyatlar alohida bob qilib ajratib olinsa, natijada ushbu turdagi jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash imkoni paydo bo‘ladi va samarali jihatlarini monitoring qilib borilishiga ham zamin yaratiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan judayam og‘ir jazolar berilishi nazarda tutilgan. Bu bilan samarali natijalarga erishilganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun Singapur davlati – korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun o‘lim jazosi va boshqa qattiq choralar qo‘llanilishi bo‘yicha mashhur davlat hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi JKning 73-moddasi “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish”ga korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo‘llanilmaydi degan normani kiritish lozim. Ana shunda ushbu huquqiy ta’sir chorasi o‘zining ijobiy ta’sirini beradi. Uning afzallik tomoni shundaki, bu turdagi jinoyatni sodir etmoqchi bo‘lgan shaxsning o‘zi bu normani bilsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishiga olib keladi.

Bugungi kunda sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablari va ularni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, amaldagi JKda ushbu turdagi jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan huquqiy ta’sir chorasi etarli darajada emasligi va tayinlangan jazodan oson qutulib qolish imkoni borligi sababli, bu turdagi jinoyatlarni salmog‘ining oshishi tendensiyasi kuzatilgan. Shu sababli JKning 74-moddasi “Jazoni engilrog‘i bilan almashtirish”ga jazoning o‘talmagan qismini engilrog‘i bilan almashtirish korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi degan norma kiritilsa, bu norma ham shu jinoyatni sodir etmoqchi bo‘lgan shaxsni yo‘lidan ixtiyoriy qaytishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, korrupsiyaga oid jinoyatlarni oldini olish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida bu bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozim. Shuningdek, samarali amaliyotni tatbiq etish orqali, yoki bu turdagi jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikni kuchaytirish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida kodeks – T.: 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – T.: 2024.

4. BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami, 2008 y., 3-4-son)

5. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 03 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - 29.12.2020 yil.